



№ 1/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi



ADPI Ilmiy xabarnomasi

№ 1 2026 fevral

Jurnal 2023-yildan chop etilmoqda

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
2022-yil 25-oktyabrda
№ 045013 raqam bilan ro'yxatga olingan
ISSN 2181-4309

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Oliy attestatsiya komissiyasi
Rayosatining 2024-yil 8-maydagi
№354-sonli qarori bilan
Pedagogika fanlari bo'yicha Oliy attestatsiya
komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar
ro'yxatiga kiritilgan.

Tahririyat manzili: 170100 Andijon shahri,
"Do'stlik" ko'chasi, 4uy, 216-xona.
Electron manzil: info@adpi.uz
Telegram: ADPI_Ilmiy_xabarnomasi
Telefon raqamlari: +998 91 484 40 90

1/1

BOSH MUHARRIR:
B.M. Rasulov- tarix fanlari doktori (DSc), professor
Mas'ul muharrir:
B.A. Sirojiddinov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

TAHRIR KENGASHI

S.Z. Zaynobiddinov- O'zRFA akademigi
I.R. Asqarov- kimyo fanlari doktori, professor
Sh.X. Yo'lchiyev- fizika-matematika fanlari doktori, (DSc), professor
A.E. Zaynabiddinov- biologiya fanlari doktori, professor
B.X. Amanov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor
A.A. Egamberdiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), professor
M.V. Xalimova- psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Sh.J. Yusupova - pedagogika fanlari doktori, professor
Z.E. Azimova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
M.B. Artiqova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
V.A. Qodirov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
N.J. Abdullayeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
M.A. Tojiboyeva – filologiya fanlari doktori, professor
Sh.A. Xaitov- tarix fanlari doktori (DSc), professor
A.G. G'aniyev- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
M.K. Pozilov -biologiya fanlari doktori (DSc). professor
T.T. Kaziyeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
U.A. Usmanova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
D.T. Samatov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
A.Xakimov- pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
M.T.Parpiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent
A.A. Zaparov- texnika fanlari nomzodi, professor
U.A. Saliyev- tarix fanlari nomzodi, professor
M.I. Israil- filologiya fanlari doktori, professor
L.A. Muxammadjonova- falsafa fanlari nomzodi, professor
Sh.A. Xasanov - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
X.T. Komilova pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
M.Sh. Alimova - siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Q. Ibaybullayev- falsafa fanlari nomzodi, dotsent
D.T. Samatov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
O'M. Muxtarov- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
S.N. Yusupova- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
B.M. Do'monov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
E.A. Tajimirzayev- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
K.S. Karimov – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
A.A. Yuldashyev- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
M.J. Abduraxmonova - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
M.M. Muydinova- fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
J.B. Qoraboyev- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
N.T. Mo'yidinov- kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
D.A. Sobirova- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
E.B. Abdullayev- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'.Sh. G'ulomov- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
L.S. Yunusov - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
U.Sh. Uktamov - geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
M.G'. Ergasheva - tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)
N.S. Yaqubov- tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)
M.I. O'rinboev- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muharrirlar:
O.Karimov,
U.Malikova,
B. Mashrabova.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

Hasanov Sh.A. Adabiyot fani o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalari talqini	4
Qoraboyev J.B. "Giperbola konseptual semantikasi"ni voqelantiruvchi til birliklarining lingvokognitiv, psixolingvistik, sotsiolingvistik va lingvostilistik tavsifi	8
Umurzaqova N.S. Bo'lajak farmaseftlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	13
Камалходжаева С.С. Язык как объект лингвистического исследования	16
Абдуллаева А.Э. Современные и передовые педагогические технологии в преподавании иностранных языков	19
Karimov O.T., Mirzayev O.X. Talabalarni iqtidorli o'quvchilar bilan "lumiye" metodi asosida ishlashga tayyorlashning didaktik imkoniyatlari	23
Jo'rayeva M.A. Kasbiy tayyorgarlikni integrativ yondashuv asosida shakllantirish	29
Ikromov M.X., Abduraimova M.A. Talabalarga muhandislik kompyuter grafikasidan foydalanib o'qitishning mazmuni	33
Ikromov M.X., G'ulomova M.N. Rangtasvir darslarida axborot-kommunikatsiya va vizual texnologiyalardan foydalanish	37
Mamatisaqova G.A. Farmasevtika ishi yo'nalishida kompetensiyaga asoslangan ta'limni rivojlantirishda xorij tajribasi	41
Mamadaliyev B.K. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar uchun kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi amaliy mashg'ulotlar tizimini ishlab chiqish	45
Axmedova D.X. Boshlang'ich ta'limda ijodiy yozuv ko'nikmalarini shakllantirishning yangi metodlari	48
Kosimova G.M. Yangi pedagogik texnologiyalar vositasida darsliklar bilan ishlash bo'yicha o'quv jarayonini loyihalash	53
Xoldarova M.Q., Tairova M.B. Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarida nutq o'stirish darslari orqali "soft skills" ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	57
Abdurahmonova H.V. Saniye Benjik Kanganing o'yin pedagogikasi va rivojlantiruvchi muhit haqidagi qarashlari	61
Xurshidbekov A.M. Erkin kurashchilarda tezlik sifatining shakllanishi va rivojlanishining uslubiy asoslari	67
Olimjonov O.O. Integratsiyalashgan tarbiya: talabalarda jismoniy salohiyat va ma'naviy immunitetni shakllantirish usullari	71
Usarov M.M. Talabalar estetik kompetensiyalarini rivojlantirishda milliy xalq o'yinlaridan foydalanining dolzarbligi	75
Karimova F.Z. Integrativ yondashuv asosida bolajak tarbiyachilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning nazariy -metodologik asoslari	80
Xakimov Sh.T. Yosh belbog'li kurashchilarga texnik usullarni o'rgatish bosqichlari	83
O'rinboyev L.X. Farmakodinamikaning fan sifatida farmakologiyada tutgan o'rni	89
Sobirjonov I.T. Farmakokopetentlik tushunchasi va uning asosiy komponentlari	95
No'monova G.D. Klinik farmakologiya fani o'qitish tizimining amalyotdagi holatini kredit-modul tizimi asosida tashkil etish	100
Xodjayev M.K. Oliy ta'lim muassasalarida futbol murabbiylarini tayyorlashning pedagogik aspektlari	105
Kodirov M.A., Otashev D.R. Basketbolda sportchilarni jaroxatlanishni oldini olish va tiklash usullari	110
Samatov D.T., Abdullaev G'A. Umumta'lim maktablarida yuqori sinf o'quvchilarining maxsus jismoniy tayyorgarligini darsdan tashqari mashg'ulotlar asosida rivojlantirishning pedagogik modeli	114
Samatov D.T., Abdullaev G'A. Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda darsdan tashqari mashg'ulotlarni innovatsion yondashuv asosida tashkil etish metodikasi	118
Mullajonov Sh.I. Sport turlarining tavsifi va sportchi faoliyatida ruhiy tayyorgarlikning roli	124
Otashev D.R., Otasheva O.H. O'smirlarnigh psixologik munosabatlari shakllantirishda jismoniy tarbiyani o'rni	129

asarlarini tahlil qilish o'quvchilarning badiiy tafakkurini chuqurlashtiradi va san'atga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy va raqamli metodlarni integratsiyalashgan tarzda qo'llash rangtasvir ta'limida eng samarali pedagogik yondashuv hisoblanadi. Bu yondashuv o'quvchilarda barqaror ijodiy qiziqish, mustaqil fikrlash va badiiy mustaqillikni shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, uning natijalari rangtasvir fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish, zamonaviy pedagogik muhit yaratish va o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Kelajakda rangtasvir darslarida AKTni kengroq va tizimli joriy etish o'quv jarayonining samaradorligini yanada oshirishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva N. *Rangtasvir darslarida multimedia vositalaridan foydalanish*. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti. 2020. 92-b.
2. Karimov S., Xolmatov B. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va badiiy ta'lim. *Pedagogika va san'at jurnali*, 2019. 3(12), 45–52.
3. Salimova L. Raqamli vositalar yordamida rangtasvir mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi. *Zamonaviy ta'lim texnologiyalari*, 2021. 6(4), 18–25.
4. Kozlova, T. (2020). Integrating ICT into painting classes: pedagogical approaches and effectiveness. *International Journal of Education and Technology*, 5(2), 55–63.
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. *Rangtasvir fanini o'qitish metodikasi bo'yicha tavsiyalar*. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti. 2022.

UO'K: 7.071.2:37.013.73:378

FARMASEVTIKA ISHI YO'NALISHIDA KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASI

<https://zenodo.org/records/18754608>

Mamatisaqova Gulchexra Alimjanovna

Andijon davlat tibbiyot instituti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada farmasevtika ishi yo'nalishida kompetensiyaga asoslangan ta'limni rivojlantirish masalalari hamda bu borada rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi tahlil qilinadi. Farmasevtika ta'limida zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish, o'quv jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishning pedagogik va metodik jihatlari yoritilgan. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi, AQSh va Osiyo davlatlarida farmasevtika mutaxassislarini tayyorlashda kompetensiyaga asoslangan yondashuvning o'рни va ahamiyati ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari milliy farmasevtika ta'limini takomillashtirishda xorij tajribasidan samarali foydalanish imkoniyatlarini belgilashga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *farmasevtika ishi, kompetensiyaga asoslangan ta'lim, innovatsion texnologiyalar, professional kompetensiya, farmasevtika ta'limi.*

Аннотация. *В данной статье анализируются вопросы развития компетентностно-ориентированного образования в фармацевтической сфере и опыт развитых зарубежных стран в этой области. Подчеркиваются педагогические и методологические аспекты формирования современных компетенций в фармацевтическом образовании, организация образовательного процесса на основе инновационных подходов и развитие практических навыков. Также рассматривается роль и значение компетентностно-ориентированного подхода в подготовке специалистов фармацевтической отрасли в Европейском Союзе, США и странах Азии. Результаты исследования позволяют определить возможности эффективного использования зарубежного опыта для совершенствования национального фармацевтического образования.*

Ключевые слова: *работа в фармацевтической отрасли, компетентностно-ориентированное образование, инновационные технологии, профессиональная компетентность, фармацевтическое образование.*

Abstract. *This article analyzes the issues of developing competency-based education in the pharmaceutical field and the experience of developed foreign countries in this regard. The pedagogical and methodological aspects of the formation of modern competencies in pharmaceutical education, the organization of the educational process based on innovative approaches, and the development of practical skills are highlighted. The role and importance of the competency-based approach in the training of pharmaceutical specialists in the European Union, the USA and Asian countries are also considered. The results of the study serve to identify the possibilities of effective use of foreign experience in improving national pharmaceutical education.*

Keywords: *pharmaceutical work, competency-based education, innovative technologies, professional competence, pharmaceutical education.*

Bugungi kunda farmasevtika sohasi sog'liqni saqlash tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanib, aholining dori vositalari bilan sifatli va xavfsiz ta'minlanishida yetakchi rol o'ynaydi. Zamonaviy sharoitda farmasevt mutaxassislariga qo'yiladigan talablar faqatgina nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmay, balki ularning kasbiy kompetensiyalari, amaliy ko'nikmalari va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Shu bois farmasevtika ishi yo'nalishida ta'limni takomillashtirish, uni xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Zamonaviy farmatsevtika ta'limi an'anaviy o'qitish usullari bilan cheklanib qolmasdan, innovatsion pedagogik texnologiyalarni o'z ichiga olishi lozim. Bunday texnologiyalarga raqamli ta'lim platformalari, elektron darsliklar, virtual laboratoriyalar, simulyatsion mashg'ulotlar va masofaviy ta'lim tizimlari kiradi. Ushbu vositalar yordamida talabalar murakkab farmatsevtik jarayonlarni chuqurroq o'rganish, nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi [1].

Farmatsevtika ishi yo'nalishida innovatsion texnologiyalarning qo'llanilishi, ayniqsa, laboratoriya mashg'ulotlari va amaliy darslarda muhim ahamiyat kasb etadi. Virtual laboratoriyalar talabalarga xavfsiz muhitda tajribalar o'tkazish, xatolarni tahlil qilish va murakkab jarayonlarni modellashtirish imkonini beradi. Simulyatsion mashg'ulotlar esa talabalarni real ishlab chiqarish va klinik vaziyatlarga tayyorlashda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, masofaviy va aralash ta'lim shakllari farmatsevtika ta'limida keng imkoniyatlar yaratadi. Raqamli ta'lim platformalari orqali talabalar o'quv materiallariga istalgan vaqtda murojaat qilishlari, mustaqil ta'lim olishlari va bilimlarini baholashlari mumkin. Bu esa o'quv jarayonining moslashuvchanligini oshiradi va ta'lim sifatini yaxshilaydi.

O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika ta'limini rivojlantirish masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Prezident qarorlari va hukumat hujjatlarida farmatsevtika sohasini modernizatsiya qilish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Ushbu hujjatlar oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash uchun huquqiy va tashkiliy asos bo'lib xizmat qilmoqda [2].

Kompetensiyaga asoslangan ta'lim — bu ta'lim jarayonining yakuniy natijasini aniq kompetensiyalar shakllanishi bilan belgilovchi zamonaviy pedagogik konsepsiyadir. Ushbu yondashuvda bilim, ko'nikma va malakalar bir butun tizim sifatida qaraladi hamda talabaning kasbiy faoliyatga tayyorlik darajasi asosiy mezon hisoblanadi.

Farmasevtika ta'limida kompetensiyaga asoslangan yondashuv talabalarni dori vositalari bilan ishlash, farmakologik tahlil qilish, farmasevtik maslahat berish va dori xavfsizligini ta'minlashga o'rgatishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, ushbu yondashuv talabalarda etik

me'yorlarga rioya qilish, bemorlar bilan samarali muloqot o'rnatish va jamoada ishlash kompetensiyalarini shakllantiradi.

Xorijiy tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, kompetensiyaga asoslangan ta'lim an'anaviy bilimga yo'naltirilgan ta'limga nisbatan samaraliroq bo'lib, talabalarning mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Rivojlangan xorijiy davlatlarda farmasevtika ta'limi kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan holda tashkil etilgan. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida o'quv dasturlari Bolonya jarayoni talablariga mos ravishda ishlab chiqilib, ta'lim jarayonida nazariya va amaliyot uyg'unligi ta'minlanadi. Talabalar klinik farmatsiya, farmasevtik xizmatlar va farmakovigilans sohalarida amaliy mashg'ulotlar orqali tayyorlanadi.

AQShda farmasevtika ta'limi Pharm dasturi asosida olib borilib, unda kompetensiyaga asoslangan yondashuv ustuvor hisoblanadi. Talabalar o'qish jarayonida klinik amaliyot, simulyatsion treninglar va tibbiy muassasalardagi rotatsiyalar orqali real ish sharoitiga moslashtiriladi [3]. Bu esa ularning kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Osiyo mamlakatlarida, xususan Yaponiya va Janubiy Koreyada, farmasevtika ta'limida raqamli texnologiyalar va innovatsion platformalardan keng foydalaniladi. Bu davlatlarda kompetensiyaga asoslangan baholash tizimi orqali talabalarning bilim va ko'nikmalari doimiy ravishda monitoring qilinadi.

Kompetensiyaga asoslangan ta'limni samarali joriy etishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'rni beqiyosdir. Xorijiy ta'lim muassasalarida farmasevtika talabalarini tayyorlashda virtual laboratoriyalar, simulyatsion dasturlar va masofaviy ta'lim platformalaridan keng foydalanilmoqda. Simulyatsion treninglar orqali talabalar farmasevtik vaziyatlarni real sharoitga yaqin holda o'rganadi, bu esa ularning amaliy ko'nikmalarini rivojlantiradi. Masofaviy ta'lim esa talabalarga mustaqil ta'lim olish imkoniyatini yaratib, ularning axborot bilan ishlash kompetensiyasini oshiradi.

Xorij tajribasini o'rganish va uni milliy farmasevtika ta'limiga moslashtirish orqali ta'lim sifatini oshirish mumkin. Jumladan, o'quv dasturlarini kompetensiyalar asosida qayta ishlab chiqish, amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish va zamonaviy baholash tizimlarini joriy etish muhim hisoblanadi. Shuningdek, professor-o'qituvchilarning pedagogik va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega [4]. Bu jarayon farmasevtika ta'limining xalqaro standartlarga moslashuvini ta'minlaydi.

Farmasevtika ishi yo'nalishida kompetensiyaga asoslangan ta'limni joriy etish nafaqat o'quv dasturlarini yangilash, balki ta'lim jarayonini tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirishni ham talab etadi. Xorijiy oliy ta'lim muassasalarida farmasevtika talabalarida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Dastlab nazariy bilimlar berilib, keyinchalik ular amaliy mashg'ulotlar orqali mustahkamlanadi.

Amaliy mashg'ulotlar farmasevtika laboratoriyalari, klinik muassasalar va dorixonalar bazasida tashkil etilib, talabalar real kasbiy faoliyatga yaqin sharoitda bilim va ko'nikmalarni egallaydi. Bu jarayon talabalarda mas'uliyat hissini oshiradi hamda ularning professional kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kompetensiyaga asoslangan ta'limda baholash tizimi alohida ahamiyatga ega. Xorijiy ta'lim tizimlarida talabalarning bilimni baholash faqat yozma yoki test shakllari bilan cheklanib qolmaydi. Amaliy topshiriqlar, klinik holatlarni tahlil qilish, loyihaviy ishlar va portfoliolar orqali baholash keng qo'llaniladi. Bunday baholash tizimi talabaning real kasbiy faoliyatga tayyorlik darajasini aniqlash imkonini beradi. Farmasevtika ta'limida

kompetensiyaga yo'naltirilgan baholash tizimi talabalarning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish va kasbiy mas'uliyatni his etish kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Farmasevtika ta'limida kompetensiyaga asoslangan yondashuvni muvaffaqiyatli joriy etish professor-o'qituvchilarning kasbiy va pedagogik kompetensiyalariga bevosita bog'liq. Xorijiy tajribada o'qituvchilar muntazam ravishda malaka oshirish kurslarida ishtirok etib, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirib boradi. O'qituvchilar ta'lim jarayonida fasilitator rolini bajarib, talabalarni mustaqil bilim olishga yo'naltiradi. Bu esa talabalarning o'z ustida ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi va kompetensiyaga asoslangan ta'lim samaradorligini oshiradi [5].

So'nggi yillarda farmasevtika ta'limida raqamli texnologiyalar muhim o'rin egallamoqda. Xorijiy ta'lim muassasalarida elektron o'quv resurslari, virtual laboratoriyalar va onlayn platformalar keng qo'llanilmoqda. Ushbu texnologiyalar talabalar uchun ta'lim jarayonini qulay va samarali qiladi. Raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarning axborot bilan ishlash, tahlil qilish va xulosalar chiqarish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Bu esa zamonaviy farmasevt mutaxassislarining kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy tajribani to'liq ko'chirish emas, balki uni milliy ta'lim tizimining xususiyatlariga moslashtirish muhim hisoblanadi. Farmasevtika ta'limida kompetensiyaga asoslangan yondashuvni joriy etishda mahalliy me'yoriy hujjatlar, ta'lim standartlari va mehnat bozori talablari inobatga olinishi lozim [6]. Xorij tajribasini moslashtirish jarayonida o'quv rejalari va dasturlarni qayta ko'rib chiqish, amaliy mashg'ulotlar hajmini oshirish va baholash tizimini takomillashtirish muhim vazifalar qatoriga kiradi.

Farmasevtika ishi yo'nalishida kompetensiyaga asoslangan ta'limni rivojlantirish zamonaviy sog'liqni saqlash tizimining ehtiyojlaridan kelib chiqadigan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy bilimga yo'naltirilgan ta'lim modeli farmasevt mutaxassislarni real kasbiy faoliyatga to'liq tayyorlash uchun yetarli emas. Shu bois ta'lim jarayonida kompetensiyaga asoslangan yondashuvni joriy etish farmasevtika ta'limining sifatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Xorijiy davlatlar tajribasi farmasevtika ta'limini tashkil etishda kompetensiyaga asoslangan yondashuvning yuqori samaradorligini yaqqol namoyon etadi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, AQSh va Osiyo davlatlarida farmasevtika ta'limi kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan holda olib borilib, talabalar nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarni chuqur egallash imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Ushbu yondashuv orqali farmasevt mutaxassislarning klinik fikrlash qobiliyati, professional mas'uliyati va bemorlar bilan samarali muloqot qilish kompetensiyalari rivojlanmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kompetensiyaga asoslangan ta'limni samarali amalga oshirish o'quv dasturlarini tubdan qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Xususan, o'quv rejalari mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirilishi, amaliy mashg'ulotlar ulushi oshirilishi va innovatsion ta'lim texnologiyalaridan keng foydalanilishi lozim. Bunda simulyatsion treninglar, virtual laboratoriyalar va raqamli ta'lim platformalari farmasevtika talabalarining kasbiy tayyorgarligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, kompetensiyaga asoslangan ta'limni joriy etishda baholash tizimini takomillashtirish alohida e'tiborga loyiqdir. Xorijiy tajribada qo'llanilayotgan kompetensiyaga yo'naltirilgan baholash usullari talabalarning real kasbiy faoliyatga tayyorlik darajasini aniqlash imkonini beradi. Bunday baholash tizimi talabalarni faqat bilim olishga emas, balki o'z

kasbiy kompetensiyalarini doimiy ravishda rivojlantirib borishga undaydi. Farmasevtika ta'limining samaradorligi ko'p jihatdan professor-o'qituvchilarning kasbiy va pedagogik kompetensiyalariga bog'liq ekanligi ham tadqiqot davomida aniqlandi. Xorijiy ta'lim tizimlarida o'qituvchilarni muntazam ravishda qayta tayyorlash va malakasini oshirish orqali ta'lim sifati ta'minlanadi. Shu bois milliy farmasevtika ta'limi tizimida ham o'qituvchilarning innovatsion pedagogik texnologiyalarni egallashiga alohida e'tibor qaratilishi zarur.

Umuman olganda, xorijiy tajribani chuqur tahlil qilish va uni milliy ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirish farmasevtika ishi yo'nalishida ta'lim sifatini oshirishning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Kompetensiyaga asoslangan ta'limni bosqichma-bosqich joriy etish orqali zamonaviy, raqobatbardosh, yuqori malakali farmasevt mutaxassislarni tayyorlash imkoniyati yaratiladi. Ushbu yondashuv nafaqat ta'lim tizimini takomillashtirishga, balki sog'liqni saqlash sohasida ko'rsatilayotgan farmasevtik xizmatlar sifatini oshirishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. International Pharmaceutical Federation (FIP). Global Competency Framework for Pharmacists. The Hague: FIP, 2020.
2. Anderson C., Bates I., Beck D. Competency-based education in pharmacy: A global overview // Pharmacy Education Journal. – 2018. – Vol. 18(1). – P. 1-10.
3. Accreditation Council for Pharmacy Education (ACPE). Accreditation Standards and Key Elements for the Professional Program in Pharmacy Leading to the Doctor of Pharmacy Degree. Chicago, 2021.
4. Toklu H. Z., Hussain A. The changing face of pharmacy practice and the need for competency-based education // Journal of Pharmaceutical Policy and Practice. – 2019. – Vol. 12(1). – P. 1-8.
5. Болонский процесс. Европейское пространство высшего образования: основные документы и материалы. – Брюссель, 2020.
6. Юсупова Н.А., Каримов Ш.Ш. Фармацевтика таълимида инновацион педагогик технологиялар. – Тошкент: "Fan va texnologiya", 2022. 77-b.

UO'K37.371.51.51(077)

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILAR UCHUN KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRUVCHI AMALIY MASHG'ULOTLAR TIZIMINI ISHLAB CHIQUISH

<https://zenodo.org/records/18754616>

Mamadaliyev Baxtiyor Kamildjanovich
Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Muallif kreativlik tushunchasining nazariy asoslarini tahlil qilib, o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida ijodiy fikrlashni shakllantirishning metodik asoslarini ishlab chiqadi. Maqolada kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi amaliy mashg'ulotlar tizimi taklif etilgan bo'lib, u diagnostika, motivatsiya, amaliy faoliyat va refleksiya bosqichlaridan tashkil topadi. Tadqiqot jarayonida talabalarning mustaqil fikrlashi, yangi g'oya ilgari surish, innovatsion dars shakllarini ishlab chiqish ko'nikmalari rivojlanganligi aniqlangan. Natijalar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ salohiyatini oshirishda amaliy mashg'ulotlar tizimi samarali vosita ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: kreativ fikrlash, amaliy mashg'ulotlar tizimi, pedagogik innovatsiya, boshlang'ich ta'lim, kreativ kompetensiya, refleksiya.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы развития креативного мышления у будущих учителей начальных классов. Автор анализирует теоретические основы понятия «креативность» и разрабатывает методические подходы к формированию творческого мышления в процессе профессиональной подготовки педагогов. Предложена система практических занятий, направленная на развитие креативного мышления, включающая диагностический, мотивационный, практический и рефлексивный этапы. В ходе исследования

